# Davra suhbatida

2019 yil 3 mayda institutning yangi anjumanlar zalida Oʻzbekiston Respublikasi xotin-qizlar qoʻmitasining eksperti, siyosatshunos olima prof. J. T. Shermuxamedova bilan institutning talaba qizlari oʻrtasida davra suhbati boʻlib oʻtdi. Jamila Shermuxammedova hozirgi kunda xotin-qizlarning ish bilan taʼminlanganligi, ularning siyosiy faolligini oshirish, ularga yordam berish, qizlarni oilaga tayyorlash, turli xil oqimlarga kirib ketmaslik va qizlarimiz toʻgʻri fikrlay olishi toʻgʻrisida maʼlumot berib oʻtdilar. Davra suhbati interaktiv metodi orqali olib borildi. Talabalar hamda professor-oʻqituvchilar ushbu davra suhbatidan juda ham mamnun boʻldilar. Shundan soʻng talabalar oʻzlarining qiziqtirgan savollariga ijobiy javob olishdi.

**Institut xotin-qizlar kengashi raisi Zulfiya Hafizova axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**